

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY ASOS -KONSTITUTSIYANING QABUL QILINISHI VA UNING AHAMIYATI

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, konstitutsiya davlatlarning tinchligi, farovonligi, inson haq-huquqlarini qay darajada himoya qilishini bilishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda har bir davlatning asosiy qonuni bo'lmish konstitutsiya davlatni adolat bilan boshqarish, mamlakat yaxlitligini ta'minlash, uni mustaqil davlat sifatida e'tirof etishning asosidir. Ijtimoiy hayotni rivojlantirishda yo'l-yo'riqlar ham konstitutsiyada qonunlar bilan belgilanganligini ko'rib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: konstitutsiya, sivilizatsiya, jinoyat, boshqaruv organlari, imperator konstitutsiyasi, referendum, huquqbuzarlik, qomusnoma, shariat qonunlari, suveren, demokratik davlat.

Har bir suveren davlatning huquqiy asoslaridan biri-uning asosiy Qonuni-Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Konstitutsiya (lotincha: constitutio-tuzilish, tuzuk)-bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimda payo bo'lgan, ya'ni imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun ishlab chiqilgan, yaratilgan, unda jamiyatni boshqarish, jinoyatlarga jazo berib, adolatsizliklarga barham berish, jinoyatchilarni qonun talablari asosida jazolab, xalqni davlatga ishontirib, davlatga suyanan va

adolatga tayangan holda yashashni ta'minlash bo'lgan. Keyin bu ommalashib, butun dunyoga turli shaklda kirib borgan.

Amir Temur "Tuzuklar"i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Har davlatning podshohlari va xalqining muammolaridan kelib chiqib, vazirlar bilan birgalikda qomuslar ishlab chiqilgan, musulmon mamlakatlari qonun ishlab chiqishda shayxulislomlarning maslahatlariga quloq solib, din tamoyilidan kelib chiqib, tuzgan.

1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida"gi masala ko'rildi. Bu xususda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada O'zbekistonning asosiy Qonuni respublikada avvalgi yillarda qabul qilingan qonunlardan farqli ravishda, demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning Konstitutsiyasi bilan bahslashga olishi mumkinligi aytilgan.

Konstitutsiyamizning qabul qilish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Konstitutsiya davlatni davla, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma" bo'lganligi, u "xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini" aks ettirishi, uning "xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli" ekani haqidagi hikmatli xulosalari to'g'ri asoslangan ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalq xohish-irodasini ifoda etuvchi adolatli davlat, farovon jamiyat va erkin hayot qurish va uni rivojlantirishning istiqbollarini belgilaydi. Unda inson hayoti, uning sha'ni, qadr-qimmati, haq-huquqlari va manfaatlari oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizda belgilangan normalarning hayotda amaliy ifoda topishida o'sib kelayotgan yosh avlodning konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati to'g'risida huquqiy bilimga egaligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning yuksakligi muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab, tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki unda mustahkamlangan qoidalarda va ifodalangan g'oyalar zahirida xalqning, millatning qolaversa bizning huquq va erkinliklarimiz mujassam.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston-suveren demokratik respublika" ekanligini e'lon qiluvchi va qonuniy mustahkamlovchi muhim qoidadan boshlanadi. Xususan, uning 1-moddasida "O'zbekiston-suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi", deb belgilangan.

Davlat xalqning rasmiy vakili sifatida o'z fuqarolarining irodasini ifoda etadi. Faqat suveren davlatgina fuqarolarning huquq va manfaatlarini to'la va har tomonlama ta'minlashi mumkin.

Konstitutsiyaning 2-moddasida: Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh qomusimiz jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e'tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi".

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida konstitutsiya muhim o'rin tutadi. U huquq tarmoqlari birligini, o'zaro muvofiqligini hamda harakatlanish prinsiplarining yagonaligini ta'minlaydi. Bu Konstitutsiyaning zarurligini belgilaydi. Chunki uni o'rganish Konstitutsiya mazmunini ifodolovchi huquqiy qoidalar, ularga onli ravishda amal qilib yashash va qonun ustuvorligiga erishishning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatimizning barcha a'zolari, shu jumladan yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini o'zida to'la ifoda etadi. Chunki davlatimizning har tomonlama qudratli davlatga aylanishida yoshlarning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Konstitutsiyasining o'rganishning zarurligini inobatga olib, 2001-yil 4-yanvarda Respublika Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi. Ushbu Farmoyish O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini fanlar tarkibida emas, balki alohida o'quv fani sifatida birinchi marta ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritishga asos bo'ldi.

Konstitutsiyamizning har bir moddasida fuqarolarimizning erkin yashashi, jamiyatda adolat, tinchlik bo'lishi, shu bilan birga jinoyat, huquqbuzarlik sodir etilganda barcha shaxs davlat oldida qonunan javob berishi belgilangan. Konstitutsiyadagi har bir modda xalq tinchligini, farovonligini o'ylashi, shuningdek adolatli bo'lishi kerak. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi fikrini 2021-yil 6-oktabrda aytilgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiya zamon talabiga muvofiq takomillashtirilishi kerakligi alohida ta'kidlangan. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi referendum 2023-yil 30-aprelda "konstitutsiya o'zimizniki" va "befarq emasman" shiorlari ostida o'tkazildi. Moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paymoqda. Konstitutsiya matni 65 % yangilangan, shuning uchu hujjat nomi "Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar"dan "Konstitutsuya yangi tahrirdagi"ga o'zgartirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hech bir davlat o'zining huquqiy asosi, qomusi - Konstitutsiyasisiga erishmay yuksala olmaydi. Konstitutsiyasiz davlatning shukuhi, qudrati va tartibi, adolati yo'qoladi. Bosh Qomusimiz, avvalo, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlab, shu yurtda istiqomat qiluvchi har bir shaxsning huquqi va erkinliklarining huquqiy kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan har bir shaxs, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatiga Konstitutsiyamizning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini, mazmun-mohiyatini singdirish, qonunga nisbatan yuksak hurmatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Qurbonova. Ilk Konstitutsiya qayerda paydo bo'lgan? "Yoshlar ovozi.uz" Toshkent. 2025.
2. N.Jo'rayev. O'zbekiston tarixi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2011.
3. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" o'quv qo'llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2010.
4. B.Turdiyev. "Konstitutsiyaviy huquq" o'quv qo'llanma. Buxoro. 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "Adolat" milliy axborot markazi. Toshkent. 2023.